

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlanish istiqbollarini baholash

Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li

Оценка перспектив развития электронной коммерции в Узбекистане

Махмудова Лазизбека Убайдулло угли

Evaluation of prospects for the development of e-commerce in Uzbekistan

Makhmudov Lazizbek Ubaydullo ugli

Received: May 14, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** maqola O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollarini tahlil qiladi. Innovatsion rivojlanish modeli va PESTEL tahlili asosida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillar ko'rib chiqiladi. Uzum Market misolida innovatsion tendensiyalar va iste'molchi talablari yoritiladi. Sun'iy intellekt va yashil logistika kabi texnologiyalar orqali rivojlanish strategiyalari taklif etiladi.
- **Kalit so'zlar:** elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish modeli, PESTEL tahlili, internet qamrovi, elektron to'lov tizimlari, logistika infratuzilmasi, sun'iy intellekt, yashil logistika, huquqiy asoslar.
- **Аннотация:** статья анализирует перспективы развития электронной коммерции в Узбекистане. На основе модели инновационного развития и анализа PESTEL рассматриваются политические, экономические, социальные, технологические, экологические и правовые факторы. На примере Uzum Market освещаются инновационные тенденции и потребности потребителей. Предлагаются стратегии развития с использованием ИИ и зеленой логистики.
- **Ключевые слова:** электронная коммерция, цифровая экономика, модель инновационного развития, анализ PESTEL, охват интернета, системы электронных платежей, логистическая инфраструктура, искусственный интеллект, зеленая логистика, правовая база.
- **Abstract:** the article examines the prospects for e-commerce development in Uzbekistan. Using the innovative development model and PESTEL analysis, it explores political, economic, social, technological, environmental, and legal factors. Uzum Market illustrates innovative trends and consumer demands. Strategies involving AI and green logistics are proposed for further growth.
- **Key words:** e-commerce, digital economy, innovative development model, PESTEL analysis, internet coverage, electronic payment systems, logistics infrastructure, artificial intelligence, green logistics, legal framework.

■ INTRODUCTION

Elektron tijorat dunyo miqyosida jadal rivojlanib, global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Internet va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida, elektron tijoratning hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. "2023-yilda global elektron tijorat bozori hajmi 5 trillion AQSh dollaridan oshdi va bu ko'rsatkich kelgusi yillarda yanada ortishi kutilmoqda"[8].

O'zbekistonda ham elektron tijorat sohasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Mamlakatimizda internetdan foydalanish darajasi ortib, yosh va texnologiyaga qiziquvchi aholi soni ko'paymoqda. "2023-yilda O'zbekistonning elektron tijorat bozori hajmi taxminan 800 million AQSh dollariga yetdi va yillik o'sish sur'ati 20 foizni tashkil etdi. Bu esa, mamlakatimizda elektron tijoratning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi"[2].

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollarini baholash zarurati bir necha omillar bilan asoslanadi. "Birinchidan, elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Ikkinchidan, elektron tijorat orqali xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlik va qulaylik oshadi. Uchinchidan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy tizimdagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi"[1].

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlanish istiqbollarini baholash sohaning joriy holatini tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va kelajakdagi o'sish tendensiyalarini prognoz qilish zarurligini ochib beradi. Bu, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va samarali siyosatni amalga oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollarini baholash zarurati global tendensiyalar, raqamli transformatsiya, iste'molchilarning xatti-harakati, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Dunyo miqyosida elektron tijoratning jadal rivojlanishi O'zbekistonni ham ushbu jarayonga qo'shilishga undaydi. Mamlakatda raqamli iqtisodiyot bo'yicha olib borilayotgan islohotlar elektron tijorat uchun qulay muhit yaratmoqda. Aholining onlayn xaridlarga bo'lgan qiziqishi va ishonchi oshib, bu sohaning kengayishiga turtki bermoqda. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun esa yangi bozorlarga chiqish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, internet qamrovi, to'lov tizimlari va logistika xizmatlarining takomillashuvi sohaning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Bu omillar elektron tijorat metodologiyasini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va aholining farovonligini yuksaltirishga zamin yaratadi.

Elektron tijoratning rivojlanish istiqbollarini baholashda

ilmiy asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda elektron tijoratni tahlil qilish uchun innovatsion rivojlanish modeli va PESTEL tahlili kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki bu yondashuvlar texnologik, iqtisodiy va huquqiy omillarni kompleks yoritishga imkon beradi. Kelgusida ushbu metodlarni statistik ma'lumotlar bilan boyitib, sun'iy intellekt asosida tahliliy prognozlarni ishlab chiqish elektron tijorat strategiyalarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

■ METHODOLOGY OF RESEARCH

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollarini baholashda ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu tadqiqotda innovatsion rivojlanish modeli va PESTEL tahlili kombinatsiyasi asosiy metodologik asbob sifatida qo'llanildi. Innovatsion rivojlanish modeli elektron tijoratning ichki omillarini, ya'ni texnologiyalar, biznes jarayonlari, investitsiyalar va startap ekotizimini tahlil qilishga imkon berdi. Bu model orqali elektron tijorat platformalarining rivojlanishi, yangi xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish jarayonlari o'rganildi. PESTEL tahlili esa tashqi muhit omillarini, xususan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy jihatlarni keng qamrovda baholash uchun ishlatildi. Ushbu tahlil davlat siyosati, iqtisodiy tendensiyalar, iste'molchilar xatti-harakati, texnologik innovatsiyalar, ekologik barqarorlik va huquqiy cheklavlarning elektron tijoratga ta'sirini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotda 2015–2024 yillardagi statistik ma'lumotlar, shu jumladan, elektron tijorat savdo hajmi, internet foydalanuvchilari soni, elektron to'lov tizimlari va ro'yxatdan o'tgan biznes subyektlari ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Uzum Market platformasi misolida innovatsion rivojlanish tendensiyalari va samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur o'rganildi. Bundan tashqari, iste'molchilar talablari va xizmatlardan foydalanish darajasini aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazildi, uning natijalari elektron tijorat xizmatlarining eng faol turlari va mavjud muammolarni yoritishga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt asosidagi tahliliy prognozlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari ham ko'rib chiqildi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi orqali O'zbekistonda elektron tijoratning joriy holati, rivojlanish imkoniyatlari va kelajakdagi strategik yo'nalishlari kompleks ravishda baholandi.

■ ANALIZE AND RESULTS

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishi raqamli infratuzilmaning kengayishi, iste'molchilarning onlayn savdoga bo'lgan ishonchi ortishi, biznes jarayonlarining avtomatlashtirilishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan

qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Ushbu jarayonni baholashda innovatsion rivojlanish modeli hamda PESTEL tahlili asosida tahlillar amalga oshirildi.

Innovatsion rivojlanish modeli doirasida O'zbekistonda elektron tijoratning barqaror o'sishiga xizmat qilayotgan asosiy omillar qatoriga internet qamrovining kengayishi (2024-yilda 32,5 million abonent), elektron to'lov tizimlarining (Click, Payme, Uzum Pay) jadal rivojlanishi, logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi, sun'iy intellekt, blokcheyn va big data texnologiyalarining joriy etilishi, shuningdek, hududiy tafovutlarning qisqarishi aniqlandi.

PESTEL tahlili natijalariga ko'ra, siyosiy omillar doirasida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsional qo'llab-quvvatlash va kiberxavfsizlik choralari elektron tijorat ishonchligini oshirmoqda. Iqtisodiy jihatdan, 2022-yilda bozordagi 311 million dollarlik ko'rsatkich va yillik 40 foizdan ortiq o'sish prognozi, soliq imtiyozlari hamda moliyaviy rag'batlantirishlar startaplarning faolligini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy omillar sifatida aholining 65 foizining mehnatga layoqatli yoshda bo'lishi va urbanizatsiya jarayoni onlayn xaridlar auditoriyasini kengaytirmoqda. Texnologik taraqqiyot, xususan, internet tezligi va 5G tarmog'i, raqamli to'lovlar hamda AI asosidagi shaxsiylashtirilgan xizmatlar foydalanuvchi tajribasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ekologik omillar doirasida esa qayta ishlanadigan qadoqlar, yashil logistika va elektr transport vositalari orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish tendensiyasi kuzatilmog'ida. Huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, xususan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ hujjatlarning yangilanishi soha subyektlari uchun barqaror va shaffof faoliyat yuritish imkonini ta'minlamoqda.

Kelajakda elektron tijoratning rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillar sifatida 5G va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida xizmatlarni avtomatlashtirish va shaxsiylashtirish, yashil logistika tizimlarining joriy etilishi orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash, blokcheyn va kiberxavfsizlik choralari takomillashuvi orqali ishonchli tranzaksiyalarni tashkil etish hamda qishloq hududlarida internet infratuzilmasining kengayishi natijasida yangi iste'molchi

segmentlarining shakllanishi kutilmoqda. Ushbu omillar zamonaviy texnologik yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning uyg'unlashuvi asosida elektron tijorat sohasini innovatsion platformaga aylantirish imkonini beradi.

Elektron tijoratning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun esa strategik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Bunda, birinchidan, raqamli infratuzilmani kengaytirish orqali internet tarmog'ining qamrovini oshirish va 5G texnologiyasini tatbiq etish zarur. Ikkinchidan, logistika tizimini takomillashtirish orqali yetkazib berish jarayonlarini avtomatlashtirish va ekologik transport vositalaridan foydalanish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish mumkin. Uchinchidan, huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, xususan, iste'molchi huquqlarini himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash barqarorlikni kafolatlaydi. To'rtinchidan, innovatsion texnologiyalar – sun'iy intellekt, big data va blokcheyn texnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali elektron tijoratning funksional imkoniyatlari kengayadi. Bu strategiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollarini baholashda innovatsion rivojlanish modeli va PESTEL tahlili birgalikda ishlatilishi mumkin. Ushbu kombinatsiya orqali ichki va tashqi omillarni birgalikda tahlil qilish, strategik qarorlarni yanada asosli qabul qilish imkoniyatini beradi.

Innovatsion rivojlanish modeli elektron tijoratning ichki rivojlanish omillarini tahlil qilsa, PESTEL tahlili esa tashqi omillarni baholaydi.

O'zbekiston elektron tijoratining innovatsion rivojlanish modeli 2015–2024 yillardagi asosiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. So'nggi o'n yil ichida elektron tijorat ekotizimi sezilarli darajada kengaydi va bu innovatsion o'sishning asosiy omillari bilan bog'liq bo'lib, quyida unga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqiladi:

- elektron tijorat savdo hajmi va foydalanuvchilarning o'sishi;
- hududiy internet qamrovi va innovatsion transformatsiyasi;

1-jadval

Kombinatsiyaning ishlash tamoyillari

MODEL	QAMRAB OLADIGAN OMILLAR	ELEKTRON TIJORATGA TA'SIRI
Innovatsion rivojlanish modeli	Ichki muhit: texnologiyalar, biznes jarayonlari, investitsiyalar, startup ekotizimi	Elektron tijorat platformalarining rivojlanishi, yangi xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish
PESTEL tahlili	Tashqi muhit: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillar	Davlat siyosati, iqtisodiy omillar, texnologik tendensiyalar va huquqiy cheklolar

- Uzum market misolida innovatsion rivojlanishning tahlili;
- so'rovnomalar natijalari asosida iste'molchilar talablari.

So'nggi o'n yil ichida elektron tijorat ekotizimi sezilarli darajada kengaydi va bu innovatsion o'sishning asosiy omillari bilan bog'liq.

2-jadval

Elektron tijorat savdo hajmining o'sishiga ta'sir etuvchi innovatsion omillar [6]

YIL	SAVDO HAJMI (MLRD SO'M)	ELEKTRON TO'LOV FOYDALANUVCHILARI (MLN.KISHI)	RO'YXATDAN O'TGAN SUBYEKTLAR SONI (DONA)
2015	1,2	0,472	7
2020	1002,5	9,46	50
2024	38 035,80	49,4	250

Birinchidan, elektron tijorat savdo hajmi 2015-yilda bor-yo'g'i 1,2 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 38035,8 mlrd so'mga yetgan. Bu esa ushbu sohaga investitsiyalar jalb qilinishi, elektron to'lov tizimlarining ommalashishi va biznesning raqamli transformatsiyasi bilan bog'liq. Ayniqsa, 2020-yildan boshlab o'sish eksponensial xarakterga ega bo'lib, bu davrda innovatsion texnologiyalar joriy qilingani kuzatiladi.

Ikkinchidan, elektron to'lov tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2015-yildagi 472,6 ming nafardan 2024-yilda 49,4 million nafarga oshgan. Bu esa aholining raqamli ekotizimga moslashayotganini, bank tizimining raqamli transformatsiyasi jadallashayotganini ko'rsatadi. Elektron to'lovlar hajmining oshishi elektron tijoratning yanada barqaror rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

Uchinchidan, elektron tijorat sohasida ro'yxatdan o'tgan subyektlar soni 2015-yilda 7 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 250 taga yetdi. Ya'ni, elektron tijorat ekotizimi shakllanib, unda faoliyat yurituvchi biznes subyektlari soni o'sdi. Bu innovatsion startaplarning ko'payishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining kengayishi hamda onlayn savdoga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liqdir.

To'rtinchidan, internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni 2015-yilda 26,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 89 foizga yetdi"[7]. Internet qamrovining kengayishi elektron tijoratning rivojlanishiga bevosita ta'sir qilgan asosiy omillardan biri bo'lib, bu innovatsion ekotizimning shakllanishini ta'minladi.

Xuddi shuningdek, "mobil internet tezligi ham sezilarli darajada yaxshilanib, 9,6 Mbit/s dan 26,97 Mbit/s gacha oshgan. Bu esa foydalanuvchilarning onlayn xarid qilish tajribasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Beshinchidan, elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va uning YAIMdagi ulushi 2017-yildan boshlab o'sishni boshlagan. Xususan, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,23 foiz"[6]ga yetdi. Bu esa elektron tijorat sohasining milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Elektron tijoratning rivojlanishi bevosita internet qamroviga bog'liq. 2015-yilda 8,07 mln abonent internetdan foydalanган bo'lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 28,16 mln nafarga yetgan. Bu jarayonning innovatsion transformatsiya bilan bog'liq jihatlari quyidagilardan iborat:

- raqamli infratuzilmaning kengayishi: 4G va 5G texnologiyalarining joriy etilishi;
- hududiy farqlarni kamaytirish: viloyatlarda internet qamrovi oshdi, lekin ba'zi hududlarda past sur'atda rivojlanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda internet tarmog'iga ulangan jismoniy shaxslar soni sezilarli darajada oshdi. 2015-yilda 8,07 million foydalanuvchi bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 28,16 millionga yetdi. Ushbu o'sish mamlakat bo'ylab raqamli infratuzilmaning kengayishi va elektron tijorat platformalarining rivojlanishi bilan bog'liq.

3-jadval

O'zbekistonda internet tarmog'iga ulangan jismoniy shaxslar soni[6]

VILOYAT	2015-YIL (MING ABONENT)	2023-YIL (MING ABONENT)	O'SISH (FOIZNI)
Toshkent shahri	2 373,40	5 193,20	119 foizni
Farg'ona	723	3 669,40	407 foizni
Andijon	604,1	2 228,40	269 foizni
Samarqand	745,7	2 624,70	252 foizni

2015-2023 yillar orasida internetga ulangan foydalanuvchilar soni 3,5 baravar o'sdi. Ayniqsa, 2019-yildan keyin tezlashgan o'sish kuzatilmoqda, bu esa mobil internet tarmog'ining rivojlanishi va smartfonlarning keng tarqalishi bilan izohlanadi. Toshkent shahri mamlakatda eng yirik internet foydalanuvchilarga ega hudud bo'lib, 2015-yildagi 2,37 milliondan 2023-yilda 5,19 millionga yetdi. Farg'ona viloyati 2015-yilda 723 ming abonentga ega bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 3,66 millionga yetib, eng katta o'sish sur'atini namoyish etdi. Samarqand viloyati ham 745 mingdan 2,62 millionga yetib, sezilarli o'sish qayd etilgan hududlardan biri bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida ham internet abonentlari soni ikki baravardan ortiq o'sdi, ammo boshqa hududlarga nisbatan sekinroq sur'atda

rivojlandi.

Ammo, hududiy tengsizliklar va muammolar ham mavjud. Masalan, Toshkent shahri va yirik viloyatlar (Farg'ona, Samarqand, Andijon) internetdan faol foydalangan bo'lsa, Qoraqalpog'iston, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida sekinroq o'sish kuzatilgan. Bu hududlardagi infratuzilma va internet tezligining yetarli darajada rivojlanmaganligi elektron tijoratning kengayishiga to'siq bo'lishi mumkin.

Innovatsion rivojlanish modeli asosida Uzum Market misolida innovatsion rivojlanish holatini tahlili quyidagilarni aniqlashga imkon beradi. Uzum Market elektron tijorat platformasi 2024-yilga kelib foydalanuvchilari soni 10,95 millionga yetgan.

O'zbekistonda elektron tijorat bozori jadal rivojlanmoqda va

4-jadval

Uzum Market elektron tijorat platformasi 2024-yilgi samaradorlik ko'rsatkichlari [10]

Nº	KO'RSATKICH	QIYMAT
1.	Foydalanuvchilar soni	10,95 mln
2.	Kunlik tranzaksiyalar	1000
3.	O'rtacha xarid qiymati	313,2 ming so'm
4.	Yetkazib berish muddati	1 kun
5.	Tarqatish punktlari soni	314
6.	Qaytarilgan tovar ulushi	5 foizni

Uzum Market bu jarayonda asosiy o'rin tutmoqda. 2024-yilga kelib platforma foydalanuvchilari soni 10,95 million kishiga yetdi, bu esa so'nggi yillarda kuchli o'sish tendensiyasini namoyon etadi. Elektron tijoratning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim jihatlarni quyidagilardan iborat:

Birinchidan, foydalanuvchilarning yuqori faolligi elektron tijoratga bo'lgan ishonchning oshganini ko'rsatadi. Har kuni 1000 dan ortiq tranzaksiya amalga oshirilayotgani bozordagi raqobat kuchayib borayotganini anglatadi. Mijozlarning faol xarid qilish jarayoni Uzum Market'ning xizmat ko'rsatish sifati va mijozlarga qulay interfeys taqdim etayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, o'rtacha xarid qiymati 313,2 ming so'm ekani, iste'molchilar elektron tijorat platformalarida muntazam ravishda xarid qilayotganini anglatadi. Bu esa O'zbekistonda internet orqali xarid qilish madaniyatining shakllanib borayotganidan darak beradi.

Uchinchi muhim omil – tezkor logistika tizimi. Uzum Market 1 kun ichida tovar yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lib, bu

mijozlar uchun juda muhim omildir. Yetkazib berish tezligi elektron tijorat platformalarining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda O'zbekistonda logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali bu jarayon yanada takomillashtirilishi mumkin.

Bundan tashqari, tarqatish punktlari sonining 314 taga yetgani Uzum Market'ning hududiy qamrovini kengaytirayotganini ko'rsatadi. Bu esa viloyatlardagi mijozlarning ham xizmatdan samarali foydalanishiga imkon yaratadi. Hududlar bo'yicha internet foydalanuvchilari sonining o'sishi bilan elektron tijorat platformalarining ham ommaviyligi ortib bormoqda.

Shu bilan birga, qaytarilgan tovar ulushi 5 foizni ekanligi, xizmat sifati va tovar tavsiflarining aniq keltirilishi bo'yicha hali takomillashtirish talab qilinishini bildiradi.

So'rovnoma natijalari asosida iste'molchilar talablari tahlili amalga oshirilgan bo'lib, unda iste'molchilarning elektron tijorat xizmatlaridan foydalanishidagi asosiy talab va muammolar yoritilgan.

5-jadval

Respondentlarning elektron tijorat xizmat turlari bo'yicha taqsimoti

Nº	XIZMAT TURI	FOYDALANISH (FOIZNI)
1.	Marketplace (tovar xaridi)	67 foizni
2.	Taom va yetkazib berish	56,5 foizni
3.	Moliyaviy xizmatlar	39,1 foizni
4.	Transport va turizm	36,5 foizni
5.	Onlayn ta'lim va konsalting	26,1 foizni

Elektron tijoratning innovatsion rivojlanish modeli raqamli infratuzilma, iste'molchilarning ehtiyojlari va bozor talablariga asoslanadi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat xizmatlaridan foydalanuvchilar orasida eng faol auditoriya 26–45 yoshdagi shaxslar bo'lib, ular barqaror daromadga ega va raqamli texnologiyalarni faol qo'llaydilar. Respondentlarning 67,5 foizni yollanma ishchilar, 20,2 foizni talabalar va 7 foizni tadbirkorlar bo'lib, bu ularning onlayn xaridlarga bo'lgan moyilligini ko'rsatadi. Bunday natijalar shuni anglatadiki, elektron tijoratni rivojlantirish uchun ishonchli to'lov tizimlari, tezkor yetkazib berish va xizmat sifatini oshirish ustuvor yo'nalishlar bo'lib qolmoqda.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, elektron tijorat orqali eng ko'p foydalaniladigan xizmatlar marketplace (67%), taom va yetkazib berish (56,5%), moliyaviy xizmatlar (39,1%), transport va turizm (36,5%) hamda onlayn ta'lim va konsalting (26,1%) sohalariga to'g'ri kelmoqda. Bu xizmatlarga bo'lgan talab mijozlarga moslashtirilgan yechimlar, mobil ilovalar integratsiyasi va tezkor yetkazib berish tizimining ahamiyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, asosiy muammolar sifatida tovar sifati va kafolatlarning yo'qligi (45,2%), internet sifati pastligi (41,7%), yetkazib berishning kechikishi (20,9%) hamda to'lov tizimlarining ishonchsizligi (15,7%) qayd etilgan. Innovatsion rivojlanish modeli doirasida bu muammolarni

bartaraf etish uchun texnologik yangilanishlar, mijozlarni qo'llab-quvvatlash tizimi va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish istiqbollarini aniq baholash uchun PESTEL tahlili qo'llaniladi. Ushbu tahlil siyosiy (Political), iqtisodiy (Economic), ijtimoiy (Social), texnologik (Technological), ekologik (Environmental) va huquqiy (Legal) omillarni baholash orqali strategik qarorlarni shakllantirishga yordam beradi. Quyida ushbu tahlil asosida elektron tijoratning O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Siyosiy omillar (Political). O'zbekistonda elektron tijoratga oid davlat siyosati va tartibga solish qonunchiligi tahlil qilinadi, bunda:

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari – elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari va loyihalar;
- soliq va bojxona siyosati – elektron tijorat subyektlariga soliq imtiyozlari va eksport-import tartibga solish tizimi;
- kiberxavfsizlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish – onlayn firibgarlikka qarshi qonunlar va iste'molchilarning ma'lumotlarini himoya qilish choralarini takomillashtirish zarurligi aniqlandi

6-jadval

Elektron tijoratning rivojlanish istiqbollariga ta'sir etuvchi siyosiy omillar

SIYOSIY OMILLAR	O'ZBEKISTONDAGI HOLAT
Davlat strategiyasi	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari mavjud
Soliq siyosati	Ayrim texnologik kompaniyalarga soliq imtiyozlari berilgan
Kiberxavfsizlik	Onlayn to'lovlarni tartibga soluvchi qonunlar joriy qilingan

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishida siyosiy omillar muhim rol o'ynaydi. Hukumatning sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati elektron tijoratning jadal rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Masalan, 29-sentabr 2022-yilda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni elektron tijorat tizimini rivojlantirishga qaratilgan qator tamoyillarni belgilab beradi. Ushbu Qonun doirasida iste'molchilar va elektron tijorat subyektlarining huquqlarini himoya qilish, shuningdek, elektron tijorat qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash kabi masalalar ko'rib chiqiladi [3].

Bundan tashqari, O'zbekiston hukumati raqamli infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 26-dekabr 2024-yildagi 885-son "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] qarori ham ushbu sohaning rivojlanishiga katta ta'sir etuvchi chora-tadbirlarni belgilab bergan. Internetdan foydalanuvchilar sonining tez o'sishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi elektron tijoratning kengayishiga zamin yaratmoqda [5]. Hukumatning raqamli

iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalari va qabul qilinayotgan qonun hujjatlari elektron tijoratning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, elektron tijoratning rivojlanishi mehnat bozori strukturasi ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratishga olib kelmoqda. Bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Iqtisodiy omillar (Economic). Elektron tijoratning o'sishi mamlakat iqtisodiy holatiga bog'liq bo'lib, u quyidagi omillar bilan ifodalanadi:

- aholining daromadlari darajasi – onlayn xarid qilish imkoniyatlari va xarid qobiliyatining oshishi;
- elektron tijoratning YAIMdagi ulushi – sanoat sektoridagi o'sish va elektron tijorat platformalarining iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi;
- investitsiyalar va moliyalashtirish – startaplar va yangi biznes modellarini rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

7-jadval

Elektron tijoratning o'sishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar [9]

KO'RSATKICH	2024-YIL
Elektron tijoratning YAIMdagi ulushi (foizni)	1,23
Elektron tijorat savdo hajmi, (mlrd so'm)	38 035,80
Internet foydalanuvchilari soni (mln)	32,5

O'zbekistonda elektron tijoratning iqtisodiy rivojlanishi jadal sur'atlarda kechmoqda. So'nggi yillarda ushbu sektor mamlakatning raqamli iqtisodiyoti tarkibida yetakchi o'rin egallab, uning hajmi sezilarli darajada ortmoqda. Xususan, 2024-yilda elektron tijorat bozori hajmi 38 035,8 mlrd so'mga yetib, 2018-yilga nisbatan 900 baravardan oshgani kuzatilgan. Bu esa mamlakatda iste'molchilarning onlayn xarid qilishga bo'lgan qiziqishi katta tezlikda ortayotganidan dalolat beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023–2027-yillarda O'zbekistonda elektron tijorat bozori o'rtacha yillik 41,4 foizdan – 47,4 foizgacha o'sish sur'atini namoyon qilishi kutilmoqda. Bunday yuqori o'sish dinamikasi asosan internet qamrovining kengayishi, mobil to'lov tizimlarining rivojlanishi va logistika infratuzilmasining takomillashtirilishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, mamlakatda 250 ta elektron tijorat subyekti faoliyat yuritayotgani, jumladan, 52 ta elektron to'lov tizimi, 35 ta bank mobil ilovasi va 163 ta internet-do'kon hamda marketplacelar mavjudligi sohaning o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, internet xizmatlari narxining nisbatan yuqoriligi, elektron tijorat bo'yicha qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish zarurati va iste'molchilarning onlayn xaridlarga ishonchsizlik muammosi hali ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shunday bo'lsa-da, sohani yanada rivojlantirish uchun internet xizmatlari narxlarini maqbulashtirish, onlayn-do'konlar sonini oshirish hamda elektron tijorat bo'yicha tranzaksiyalar hajmini kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

3. Ijtimoiy omillar (Social). Ijtimoiy omillar mijozlarning raqamli xizmatlardan foydalanish xulq-atvoriga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli ularni tahlil qilmasdan turib, elektron tijoratning rivojlanish istiqbollari baholash imkonsiz deb hisoblaymiz. Ijtimoiy omillar sifatida quyidagi omillarni ko'rib chiqamiz:

- raqamli savodxonlik – internetdan foydalanish va onlayn xarid qilish madaniyatining rivojlanishi;
- demografik omillar – yoshlar orasida onlayn

xizmatlarga talab yuqori;

- mijozlarning ishonchi – iste'molchilar elektron

tijorat platformalariga ishonchini oshirish uchun xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi.

8-jadval

Elektron tijoratning o'sishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar [9]

ASOSIY KO'RSATKICHLAR	O'ZBEKISTONDAGI AHVOLI
Raqamli savodxonlik	O'rtacha darajada o'smoqda
Onlayn xarid qilish madaniyati	Yoshlar orasida tez rivojlanmoqda
Elektron tijoratga ishonch	Ortiq, lekin firibgarlik xavfi bor

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishiga ijtimoiy omillar, xususan, demografik o'zgarishlar, iste'molchilar xulq-atvori, raqamli savodxonlik va urbanizatsiya ta'sir qiladi. Aholining 65% mehnatga layoqatli yoshlar (18–35 yosh) bo'lib, ular onlayn xaridlardan faol foydalanadi. 2023-yilda O'zbekiston aholisi 36 milliondan oshdi, internet foydalanuvchilari esa 28 millionga yetdi. Mobil ilovalar orqali xarid qilish tendensiyasi kuchayib, onlayn savdo platformalari ommalashmoqda. Urbanizatsiya tufayli yirik shaharlar (Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon) va qishloq hududlarida internet-do'konlar va yetkazib berish xizmatlari kengaymoqda. Uzun Market va ZoodMall kabi platformalar tezkor yetkazib berish orqali iste'molchilar ishonchini oshirmoqda. Biroq, internet sifati pastligi, keksalardagi raqamli savodxonlik yetishmovchiligi va onlayn to'lovlarga ishonchsizlik rivojlanishni sekinlashtiradi. Ta'lim dasturlari va yangi biznes modellari bu muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Texnologik omillar: Elektron tijorat rivojlanishi texnologik infratuzilmaga bog'liq. 2023-yilda 32 milliondan ortiq internet foydalanuvchisi qayd etildi, 5G va optik tolali tarmoqlar kengaymoqda. Fintech xizmatlari (Click, Payme, Uzun Pay) tezkor va xavfsiz to'lovlarni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt va big data foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, biznes samaradorligini oshiradi. Uzun Market avtomatlashtirilgan tarqatish markazlari va bir kunlik yetkazib berish tizimini joriy etdi, dron yetkazib berish sinovdan o'tkazilmoqda.

Ekologik omillar: Elektron tijorat ekologik barqarorlikka hissa qo'shadi. Yashil logistika, elektr transport va qayta ishlanadigan qadoqlash texnologiyalari qo'llanilmoqda. Raqamli kvitansiyalar qog'oz iste'molini kamaytiradi. Iste'molchilar orasida ekologik toza tovarlarga talab ortmoqda.

Huquqiy omillar: Huquqiy asoslar elektron tijoratning barqarorligini ta'minlaydi. 2022-yilda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun yangilandi, 2024-yilda esa sohani rivojlantirish bo'yicha 885-son qaror qabul qilindi. "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun mijoz ma'lumotlarini himoya qiladi. Soliq yengilliklari va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish

qonunlari startaplar va mijozlar ishonchini oshiradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Real iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD / Махмудова лазизбека Убайдулло угли - доцент кафедры Реальной экономики Самаркандского Института экономики и сервиса, PhD / Makhmudov Lazizbek Ubaydullo ugli - associate professor of the Department of Real economy, Samarkand Institute of Economics and services, PhD**

► lazizmakhmudov90@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0002-6819-6543>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Asomidinova M.O. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollari / M.O. Asomidinova. – 2024. – URL: <https://zenodo.org/records/13309075>.
- [2]. O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratning rivojlanish holati. – 2023. – URL: <https://prezi.com/p/vccedez-cyhi/ozbekiston-respublikasida-elektron-tijoratning-rivojlanish-holati/>.
- [3]. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. – 2022. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 885-son. – 2024. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7282643>.
- [5]. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishga tayyormi? / Yuz.uz. – 2023. – URL: https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-elektron-tijoratni-rivojlantirishga-tayyormi?utm_source=chatgpt.com.
- [6]. Rasmiy statistika: Ichki savdo. – Tashkent: O'zbekiston

- Respublikasi Statistika agentligi, 2025. – URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2>.
- [7]. Rasmiy statistika: Xizmatlar. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2025. – URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>.
- [8]. Sodikov A. O'zbekistonda elektron tijorat rivojlanish bosqichlari va tahlili / A. Sodikov // Экономика и социум. – 2023. – №12 (115)-1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekistonda-elektron-tijorat-rivojlanish-bosqichlari-va-tahlili>.
- [9]. Umumiy statistika ma'lumotlari. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2025. – URL: <https://stat.uz/uz/>.
- [10]. Uzum Market rasmiy sayti. – 2025. – URL: <https://uzum.com/ru/>.
- [11]. Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali: O'zbekistonda elektron tijorat rivojlanishi. – 2023. – URL: https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_efe97cbc0a9445879093e7db85e6b2cd.pdf?index=true&utm_source=chatgpt.com.
- [12]. Iste'molchilar so'rovnoma natijalari. – 2025. – URL: <https://docs.google.com/forms/d/16yOlyjKB-WSqIVBwDmRKNm96mkX0bAjnnmVoNybyYIn4M/edit#responses>.
- [13]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki: To'lov tizimlari statistikasi. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. – URL: https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/?arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3506&year=2025&month=04&set_filter=&set_filter=Y.